

XURSHID DAVRON SHE'RIYATIDA VATAN TASVIRI

*Raxmataliyeva Feruzaxon Akmal qizi,
Farg'ona davlat universiteti, 1-kurs talabasi*

Annotatsiya

Maqolada shoir Xurshid Davron she'riyatiga xos bo'lgan badiiy-estetik xususiyatlar Vatan mavzusiga bag'ishlangan she'rlari asosida tahlil qilingan. Vatan tasviri orqali shoir talqinlari ifodasi yoritilgan. Ijodkor badiiy mahorati tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: mavzu, badiiy mahorat, tasviriy vositalar, milliy ruh

O'zbek she'riyatining qadimiy mavzularidan bo'lgan ona Vatan mavzusi har bir ijodkorning yetakchi mavzularidandir. Chunki vatan shunday muqaddas makonki, unda ajdodlarning, millatning xoki yotadi. Vatanning yer ostidagi buloqlari inson jon tomirlari bilan bog'langan bo'ladi, agar inson bu buloqlardan uzoqlashsa, unutsa, uning jon tomirlari bilan birga ma'naviyati, milliyligi ham quriydi. Shu ma'noda o'zbek she'riyatida milliylikni ifodalash uchun shoirlar qator vositalardan, turli talqinlardan foydalanishganini kuzatish mumkin. Professor N.Jabborov she'riyatdagi yetakchi tamoyillarni quyidagicha izohlab beradi: «Biz ularni shartli ravishda to'rt guruhga ajratdik:

- 1) milliylik;
- 2) poetik til meyor;
- 3) obrazlilik;

4) tuyg'uning samimiyligi tamoyillari. Milliylikdan holi bo'lgan tuyg'u ta'sir kuchidan ayriladi. Milliy ruhdan mosuvo tafakkur bamisoli qanotsiz qushga mengzaydi. Shunga ko'ra, milliylik she'riyatning asosiy tamoyilidir. Zero, ta'bir joiz bo'lsa, jahon adabiyoti ko'rigida o'zbek she'riyatini ajratib ko'rsatuvchi asosiy xususiyat, o'zgalardan farqini namoyon etadigan bosh belgi bu milliy ruhdur»¹. Darhaqiqat, jahon she'riyatida har bir xalqning o'z milliy qiyofasini, tafakkur tarzini ifodalovchi yetakchi belgilar mavjud. Ana shunday belgilar mustaqillik davri o'zbek she'riyatida badiiy fikrlash va poetik til doirasida yaratilgan obrazlilikda yaqqol namoyon bo'ldi.

XX asrda o'zbek adabiyotiga kirib kelgan, adabiyotda o'z so'ziga, uslubiga ega ijodkor Xurshid Davron ijodining salmoqli qismini Vatan madhiga bag'ishlangan she'rlar tashkil qiladi. Xurshid Davron ijodiy laboratoriyasiga kirish, uning avtobiografiyasi bilan bog'liq she'rlarini kuzatish asnosida aytish mumkinki, Vatan madh etilgan she'rlarida Samarqandning o'z o'rni bor. Shoirning "Samarqand" deb

¹Jabborov N. Yangi zamon she'riyati tamoyillari // Sharq yulduzi, 2014, № 3. –B. 110-111.

nomlangan turkumining "Kunduz" qismida O'zbekistonning ilk poytaxti, tillarda doston, mahobatli bu shaharning kunduz manzaralari aks etganiga guvoh bo'lamiz:

Ko'chalari bir-birin tinmay
takrorlaydi misli aks-sado
Olislardan kelgan kemaday
qalqib turar Registon tanho

Ko'kda moviy daryo suzadi,
oqib yotar moviy bir kadar,
Alplar otgan po'lat nayzadek
ko'kka botib turar minorlar

Mazkur she'r Samarqand ko'chalarining misli aks-sadodek bir-birini takrorlashi tasviri bilan boshlanadi, ushbu ko'chalar bilan yurilganda, muhtasham Registon maydoniga chiqiladi. Registon butun Samarqandning markazi, ramzidir. Shu sababli shoir uni olisdan suzib kelgan tanho kemaga qiyoslaydi. Minorlarning moviy parchinlari va osmonning moviy tusi shu qadar mutanosibki, ular butun shaharda, ko'kda moviy daryo suzayotgandek taassurot qoldiradi. Shoir sharqona minoralarning balandligini shunday tasvirleydi: "go'yoki ular alplar otgan po'lat nayzadek osmonga botib turibdi".

Olib chiqar nurga ko'milib
bobolarga qirq qari zina,
Va ertakning nuqtasi bo'lib
qotib turar tund Shohizinda.

Bu satrlar bilan shoir Samarqandning qadim tarixiga nazar soladi. Sharqona an'analariga murojaat qilgan holda qirq raqamidan foydalanadi. Yani bu "qari", ko'pni ko'rgan qirq zina nurli ajdodlarga olib chiqadi. Mazkur minorlar, obidalarni tarix ko'zgusi, avlodlarga qoldirilgan meros sifatida ko'radi. Samarqand ertagining nuqtasi deya Shohizinda maqbarasini tanlaydi. Bunda ham shoirning Samarqand tarixiga chuqur ehtirom va izzatoblari ko'rinadi.

Yulduzlarga boqib sarmast
shovullaydi chorbog'lari
Shahar tomon oqib tushar
Afrosiyob so'qmoqlari

Hamma uxlar, faqat shamol
daraxtlarning sochin tarar
Uxlamasdan qo'riqlaydi
Samarqandni minoralar.

Turkumning "Tun" qismidan olingan mazkur satrlarida Samarqandning tun manzaralari chiziladi. Shamolning shahar ko'chalari bo'ylab esishi daraxtlar sochini tarashiga qiyos qilinadi. Butun shahar ahli uyquga ketgan bo'lsa-da, uning chorbog'lari, Afrosiyob so'qmoqlari uyg'oq, ajdodlar taqdiridan, azaliy qonuniyatlardan so'z ochib mayin shovullaydi. Shoir yana minorlarga nisbatan jonlantirish san'atini qo'llab ularni mudom uyg'oq shahar qo'riqchilari deya tasvirlaydi.

"Tong" qismida esa shoir boshidan kechirgan tuyg'ularini, ona shahriga bo'lgan hurmati va hayratini yorqin tasvirlaganini guvohi bo'lamiz. Qahramon tongga yaqin tush ko'radi. Unda Navbahor darvozasidan ona shahriga kirayotgani va undagi moviylikni ko'rib dil larzasidan titrab yonayotgani holati tasvirlanadi. Yulduzlar changi qoplagan maysalarning yashil qog'oziga mahliyo bo'lib turganda yer qaridan ovoz eshitiladi:

Men opichlab Afrosiyobni
 Olib keldim, chiqqin yugurib
 Tushda ko'rib har kun oftobni
 Sochim ketdi qordek oqarib

Bu ovoz qadim tarixning avlodlarga bo'lgan nidosi. Shoir bu misralar bilan qadimiy Turon va Eronzamindagi voqealarni yodga oladi. Tarixiy siymo Afrosiyob timsolida Vatanga muhabbatni, adolatni, mehri va shafqatni tasvirlaydi. Quyosh detali adabiyotda tunganmas mehr, yaxshilik timsoli sifatida ishlatiladi. Bu orqali shoir Afrosiyob va quyosh timsollarini mahorat bilan bog'lay olgan.

Va kuz mehri chulg'agan bog'da
 ona shahrim, seni o'yladim.
 Keksa bog'lar uyg'ongan chog'da
 tongga singib ketdi o'ylarim...

Samarqand tongi shunday beg'uborki, tunlarda, kunduzlarda bo'lib o'tgan barcha narsalarga ko'z yumadi. Bog'lar tong kirishi bilan yana mehr bilan tovlanib turadi. Shoir shunday hislar og'ushida ona shahrini uzoq o'ylaydi. Quyoshning yolqinlari kekxa bog'larga tushib sochilib ketgan kabi o'ylari ham tongga singib ketadi. Shu o'rinda adabiyotshunos G.Oripovanning quyidagi fikrlarini keltirish joiz: "She'riyatdagi g'oyaviy-badiiy talqinlar badiiy detallar vositasida yuzaga kelgan milliy manzara va qiyofalarda, milliy voqelik va obrazlarda o'z talqinini topdi. Mustaqillik davri o'zbek she'riyatining milliy jozibasi, avvalo, lirik qahramonning fikrlash tarzida, milliy koloritni mahorat bilan aks ettirishda ko'rindi"²

² Oripova G. Mustaqillik davri she'riyatining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari. Monografiya. – Riga: GlobeEdit, 2020. – B.84.

Xurshid Davron tarixga bo'lakcha mehr bilan qaragan. o'tmishini anglagan insongina bugunini qura oladi. o'tmishini unutmagan, ajdodlar merosiga befarq bo'lmagan, ulardan faxr hissini tuygan, o'zini buyuk bobolarning davomchisi, merosxo'ri sifatida bilgan avlodgina ularga munosib bo'ladi, degan g'oyalarni ilgari surgan. Jumladan,

Bo'lmaganda gar Shohizinda
Yo Xivaning Kalta minori,
Yurak degan qutlug' zaminda
Yuksalmasdi G'urur chinori.
Bo'lmaganda Go'ri Amirning
Toshlariga bitilgan ko'klam
Hayratlanib qoshida sirning
Viqor bilan to'lmasdi ko'krak.

Mazkur she'rda ham tarixiy xotira va obidalarning inson ma'naviyatida naqadar yuksak o'rinda ekanligini ko'rsatuvchi g'oyalar ilgari surilgan. Yurak deb atalgan zaminda g'urur chinorining yuksalishi uchun inson Shohizinda, Kalta minor, Minorayi Kalon Bibixonim maqbarasi, Registon kabi millat tarixiga o'chmas obida bo'lgan qadamjoldardan g'ururlanishini anglashi kerak. Agar Go'ri Amirning toshlaridagi ko'klam kabi sof, yoqimli va bebaho bitiklar bo'lmasa, ko'krak viqor bilan to'lmas, hayratlanib boqmasdi. Bu hayratga soluvchi bitiklarni anglash uchun ham yurt tarixiga befarq bo'lmaslik kerak, shundagina yurak chinakamiga g'urur, faxr, iftixorga to'ladi.

Xurshid Davron she'rlarida Vatan yodi hamisha ruhlar bilan birga payvasta bo'lishi kerakligini tarannum etdi.

Dilingda bo'lsin quvonchi, g'ami
Kitoblarda emas, qog'ozda emas.
Bo'zda yaahaysizmi, Buxorodami
Siz bilan baravar u olsin nafas

Bu misralarda Vatanga muhabbat faqatgina o'z shahrini emas, yurtning har bir burchagini sevish kerakligi, muhabbat kitoblarda, qog'ozlarda emas dilda saqlanishi lozimligi haqida so'z boradi. Bu borada shoirning "Turkiston" she'rida yurtimizning turli go'shalariga o'ziga xos ta'rif mavjud:

Samarqand - za'faron tiramoh
Buxoro - qirmizi saraton,
Tosh shahri - sovigan kahrabo
Turkiston, Turkiston, Turkiston...

Ushbu she'rda shoirning mahoratidan hayratlanmay iloj yo'q. Shunday g'aroyib topilma qiladiki, butun shaharlarning fasohatini birgina jumla bilan ochib beradi. Tiramoh - tojikcha "kuz" degan ma'noni anglatadi. Shoir Samarqanddek shahri azimni "za'faron kuz" deb ataydi. Buning sababini g'ishtin minorlarning ko'pligi, iqlimi issiq

voha ekanligi bilan izohlash mumkin. Mevalarning asli yetiladigan, saxovatli, oltinrang faslga qiyoslanishi tarixan ko'p talotumlarni boshdan kechirgan, lekin o'z mahobatini, muhtashamligini asrab qola olgan shahar uchun o'rinli tashbeh. Buxoro shahriga "qirmizi saraton" ta'rifi beriladi. Qirmizi rang adabiyotda muhabbat ramzi ekanligini inobatga olsak, tarixi-yu buguni bilan obro'li, muhtasham Buxoroyi sharifga muhabbati tasvirlanyapti, deyish mumkin. Lekin qonning rangi ham qizil, shoir bu sifat bilan Buxoro boshidan o'tgan qonli kunlar tarixiga nazar tashlamoqda. Tosh shahri bu Toshkent, kent so'zi shahar ma'nosida qo'llaniladi. Shoir bu shaharni "sovugan kahrabo" deb ataydi. Kahrabo so'ziga izohli lug'atda "sariq rangli, shaffof, yaltiroq, tosh qotgan yelim" ta'rifi beriladi. Bu shoirning so'z tanlash mahoratidir. Samarqand-u Buxoroga saraton, issiqlik sifatini berib, Toshkentni sovigan kahraboga o'xshatish orqali tazod san'atini yuzaga keltirgan. Bu bilan yurtning har go'shasi o'ziga xos sabohatga, go'zallikka ega ekanligi ta'kidlangan. Va ularni bir nom birlashtirib turadi, ya'ni "Turkiston, Turkiston, Turkiston".

Xulosa shuki, Xurshid Davron she'rlarida Vatan mavzusi va uning tasviri orqali vatanparvarlik g'oyalari ilgari surilgan, shoirning vatanga va xalqqa bo'lgan muhabbati tarannum etilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: Fan, 2007.
2. Jabborov N. Yangi zamon she'riyati tamoyillari // Sharq yulduzi, 2014, № 3. – B.110-111.
3. Oripova G. Mustaqillik davri she'riyatining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari. Monografiya. – Riga: GlobeEdit, 2020. – B.84.
4. Sabirdinov, A. (2019). Sketches to the novel "Night and day" by Chulpan. Scientific journal of the Fergana State University, 1(6), 119-120.
5. Sabirdinov, A. G. (2021). Interpretation of Characters in Utkir Hoshimov's Story "Yanga". International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding, 8(6), 196-200.
6. Sabirdinov, A. (2020, December). ASKAR KASIMOV IN THE UZBEK POETRY OF THE XX CENTURY THE ROLE AND IMPORTANCE OF CREATION. In Конференции.
7. Sabirdinov, A. G. (2021). Interpretation of the banned period in the stories of Naim Karimov. Asian Journal of Multidimensional Research, 10(11), 4-91.
8. Сабирдинов, А. Г. (1993). Слово и образ в поэзии Айбека.
9. Oripova G. M., Tolibova M. T. Q. Composition Of Modern Uzbek Stories //The American Journal of Social Science and Education Innovations. – 2021. – T. 3. – №. 03. – С. 245-249.
10. Oripova, G. (2020, December). RHYTHM AND MYTHING IN LYRICAL GENRE. In Конференции.

11. Oripova, G. (2019) "Traditions of folk ballads and distinctiveness of Uzbek poetry of independence period," Scientific journal of the Fergana State University: Vol. 2, Article 12.
12. Oripova, G. M. (2021). Genesis And Essence Of Genre Concept. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 3(12), 90-94.
13. Oripova, Gulnoza, & Ibrohimova, Gulchiroy (2022). SIROJIDDIN SAYYID IJODIDA MUMTOZ MUSHTARAKLIKLAR. International scientific journal of Biruni, 1 (2), 251-255.
14. Oripova, Gulnoza Murodilovna, Akhmadjonova, Okila Abdumalikovna, Kholmatov, Oybek Umarjon Ugli, & Muminova, Tabassum Siddigovna (2022). INTERPRETATION OF MOTHER IMAGE IN LITERATURE. International scientific journal of Biruni, 1 (2), 304-309.
15. Oripova, Gulnoza, & Alijanova, Maftuna Azimjon Qizi (2022). ASQAD MUXTORNING "CHINOR" ROMANIDA AYOL PORTRETINING BADIY-PSIXOLOGIK ASOSLARI. International scientific journal of Biruni, 1 (2), 221-226.
16. Oripova, Gulnoza Murodilovna, & Abdurasulova, Nafisa Abdumannob Qizi (2022). O'ZBEK NASRIDA URUSH MAVZUSI VA "YO'QOTILGAN AVLOD" MUAMMOSI. International scientific journal of Biruni, 1 (2), 213-220.
17. Oripova, G. , & Mirzajonova, G. (2023). TARIXIY SHAXSLAR TASVIRI VA MUALLIF MUNOSABATI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3 (10), 411-415.
18. Oripova, Gulnoza, & Abdurasulova, Nafisa Abdumannob Qizi (2023). NABI JALOLIDDIN NASRIDA URUSH QATNASHCHILARI RUHIYATI TASVIRI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3 (5), 495-501.
19. Oripova, G. (2019). UZBEK POETRY AND THE WORLD LITERATURE IN THE YEARS OF INDEPENDENCE. Scientific Journal of Polonia University, 32(1), 116-120.
20. Oripova Gulnoza Murodilovna. (2019). THE PECULIARITIES OF VAZN METER IN UZBEK POETRY OF THE INDEPENDENCE PERIOD. International Journal of Anglisticum. Literature, Linguistics and Interdisciplinary Studies. Volume: 8 /Issue:2/. – Macedonia, 2019. –P.33-39.
21. Murodilovna, O. G. (2020). Melody and musicality in Liryics. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 10(11), 656-664.